

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 45 (1644), 2026-yil 6-mart, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



FARMATSEVTIKA SOHASIDA ILG‘OR TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRARISH JADALLASHTIRILADI

5-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida farmatsevtika tarmog‘ida ishlab chiqarishni kengaytirish hamda sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari farmatsevtika inson salomatligi, aholi hayot sifati va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq strategik soha ekanini ta’kidladi.

So‘nggi yillarda sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgani qayd etildi. Jumladan, o‘tgan to‘qqiz yilda tarmoqqa 1 milliard 800 million dollar investitsiya kiritilib, 140 ta yangi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 300 dan ortiq farmatsevtika korxonasi faoliyat yuritmoqda, ularning 58 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri dori vositalari ishlab chiqaradi.

Natijada farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3,5 barobar o‘tib, 7 trillion 300 milliard so‘mdan oshdi. Mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarish esa 2 karra ko‘paydi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan farmatsevtika mahsulotlari 55 ta davlat bozoriga yetkazilmoqda. Tarmoqdagi ish o‘rinlarining soni esa 40 mingdan oshdi.

Umuman olganda, mamlakatimizda dori vositalari va tibbiy buyumlar bozori hajmi qariyb 2,5 milliard dollarga yetgan.

Mutasaddilar oldiga joriy yilda farmatsevtika sohasiga kamida 1 milliard dollar investitsiya jalb qilish, sifati oshirish va xorijiy farmatsevtika kompaniyalari bilan hamkorlikda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali ichki iste‘moldagi mahalliy dorilar ulushini

2030-yilgacha 70 foizga yetkazish hamda kelgusi besh yilda eksport hajmini 1 milliard dollarga olib chiqish vazifalari qo‘yildi.

Respublikada 136 gektar maydonda 5 ta farmatsevtika sanoat zonasi tashkil etilgan bo‘lib, ular uchun barcha zarur infratuzilma yaratilgan. Biroq ayrim hududlarda ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanilmayotgani qayd etildi.

Jumladan, 25 gektar maydonni egallagan Jizzax farmatsevtika zonasida o‘tgan yili bir so‘mlik ham mahsulot ishlab chiqarilmagan. Bo‘stonliq tumanidagi 14 gektar yer maydoni esa 2017-yildan beri bo‘sh turibdi. Shuningdek, o‘tgan yili Jizzax va Samarqand viloyatlarida birorta ham farmatsevtika loyihasi ishga tushirilmagani, Buxoro va Xorazmda esa investitsiya loyiholari juda kamligi tanqid qilindi.

Yig‘ilishda farmatsevtika sohasi tadbirkorlari tomonidan bildirilgan takliflar ham ko‘rib chiqildi. Xususan, farmatsevtika zonalar mavjud bo‘lmagan hududlardagi korxonalarga ham mazkur zonalar uchun belgilangan soliq imtiyozlarini qo‘llash masalasi ko‘tarildi.

Prezidentimiz mazkur taklifni qo‘llab-quvvatladi va farmatsevtika korxonalari uchun qator yangi imkoniyatlarni e‘lon qildi.

Jumladan, joriy yil 1-apreldan boshlab farmatsevtika vositalarini ishlab chiqarish, dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta

ishlash bo‘yicha yangi loyihalar uch yil muddatga yer solig‘idan ozod etiladi. Loyiha ishga tushganidan keyin uch yil davomida foyda va mol-mulk solig‘i ham undirilmaydi.

Shuningdek, biologik faol qo‘shimchalar va kosmetika vositalari ishlab chiqaruvchilar uchun xomashyo, uskuna hamda butlovchi qismlar importi bojlardan ozod qilinadi. Farmatsevtika korxonalariga o‘zining liniyasida biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqarishga ruxsat beriladi.

Endilikda har yili 1-iyulga qadar mahalliyashtirish maqsadga muvofiq bo‘lgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ro‘yxati tadbirkorlarga e‘lon qilib boriladi. Ushbu ro‘yxatdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalar uchun tadbirkorlarga xorijiy valyutada 7 foizli kreditlar ajratiladi.

Mavjud mahsulotlar bo‘yicha mahalliyashtirishni chuqurlashtirishni rejalashtirgan korxonalarga Sanoat kooperatsiyasi jamg‘armasidan 10 yilgacha muddatga xorijiy valyutada 6 foizli, milliy valyutada esa 12 foizli kreditlar taqdim etiladi.

Yig‘ilishda xorijiy farmatsevtika kompaniyalarini mamlakatimizga jalb qilish, ular bilan texnologiyalar transferini yo‘lga qo‘yish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi.

➤ Давоми 2-бетда

O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Ozarbayjon hududiga uchuvchisiz uchish apparatlari bilan uyushtirilgan hujumlarni keskin qoralab, jarohat olganlarning tez fursatda sog‘ayib ketishini tiladi.

Co‘nggi kunlarda Yaqin Sharq mintaqasida kuzatilayotgan keskinlikning avj olishi ko‘plab tinch aholining qurbon

bo‘lishiga olib kelayotgani va jiddiy xavotir uyg‘otayotgani alohida qayd etildi.

Muborak Ramazon oyida ro‘y berayotgan bunday voqealar umuminsoniy qadriyatlarga, xalqaro normalar va davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyillariga zid ekanini ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi fuqarolarimizni Erondan Ozarbayjon hududi orqali xavfsiz

evakuatsiya qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar va yaratilayotgan sharoitlar uchun Ilhom Aliyevga minnatdorlik bildirdi.

Ozarbayjon Prezidenti, o‘z navbatida, davlatimiz rahbariga do‘stona suhbat va sinovli damlarda ko‘rsatilgan qo‘llab-quvvatlov uchun alohida tashakkur izhor etdi.

O‘ZA

TRANSPORT INFRATUZILMASIDAGI YIRIK LOYIHALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan yirik loyihalar doirasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Toshkent — Samarqand yo‘nalishida yangi zamonaviy avtomagistral qurish loyihasi ko‘rib chiqildi. Rejaga ko‘ra, ushbu yo‘lining umumiy uzunligi 282 kilometrni tashkil etadi. Shundan 140 kilometrlik uchastkalarda tuproqni mustahkamlash ishlari amalga oshiriladi. Loyiha doirasida 12 ta transport yechimi, 91 ta ko‘priklar va 16 ta yo‘l o‘tkazgich qurilishi ko‘zda tutilgan.

Besh yil davomida qurilishi rejalashtirilayotgan mazkur yo‘l I-a toifali, ya‘ni avtomobil yo‘llarining eng yuqori texnik va xavfsizlik standartlariga javob beradigan magistral bo‘ladi. Unda har biri 3,75 metr kenglikdagi sement-beton qoplamali oltita harakat tasmasi barpo etiladi. Yo‘lining loyihaviy tezligi soatiga 150 kilometr etib belgilanadi.

Shuningdek, Toshkent — Angren — Qamchiq dovoni yo‘nalishida 171 kilometrlik muqobil avtomobil yo‘li barpo etish loyihasi

ham amalga oshiriladi. Ushbu yo‘lda 33 kilometrlik tonnellar hamda bir qator yirik muhandislik inshootlarining qurilishi rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbariga mazkur yirik loyihalar uchun ishlab chiqilayotgan moliyalashtirish manbalari va xorijiy investorlarni jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan muzokaralar haqida axborot berildi.

Avtomagistralarni loyihalashda zamonaviy transport muhandisligi yechimlaridan foydalanish, intellektual boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etish, harakat xavfsizligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratish lozimligi ta’kidlandi.

Taqdimotda Toshkent — Chorvoq va Urganch — Xiva yo‘llarini qurish loyihalarining borishi haqida ham ma‘lumot berildi.

Shuningdek, Toshkentning yangi xalqaro aeroportini qurish loyihasing asosiy

parametrlari ko‘rib chiqildi. Birinchi bosqichda 208,4 ming kvadrat metrlik yo‘lovchi terminali, uzunligi 4 kilometrdan bo‘lgan ikkita uchish-qo‘nish yo‘lagini barpo etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, yiliga 20 million nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish, soatiga 30 ta qo‘nish va uchishni ta‘minlaydigan infratuzilmani yaratish hamda 169 ta havo kemasi uchun avtotutargoh tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Ayni paytda bo‘ljak aeroport hududida olib borilayotgan loyiha-qidiruv ishlari va kelgusi bosqichlar to‘g‘risida axborot berildi.

Prezidentimiz tomonidan mutasaddilarga loyihalarini texnik va iqtisodiy jihatdan puxta tayyorlash, qurilish ishlari zamonaviy standartlar asosida tashkil etish hamda transport infratuzilmasining uzoq muddat barqaror ishlashini ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘ZA

Mehrli siyosat

O‘ZBEKISTONLIKLAR O‘Z DAVLATI HIMOYASIDA

Kuni kecha Prezidentimiz Yaqin Sharqdagi qator davlatlar rahbarlari bilan telefon orqali muloqot qilib, mintaqada yuzaga kelgan beqaror vaziyat hammadagi jiddiy tashvish uyg‘otayotganini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari Yaqin Sharq mamlakatlari yetakchilari bilan suhbatda O‘zbekiston har qanday qarama-qarshilik hamda ziddiyatni siyosiy-diplomatik va tinch yo‘llar bilan, muzokaralar orqali hal qilishning qat‘iy tarafdorligini bildirar ekan, muloqotlar chog‘idagi muhim bir siyosiy aspekt bizni alohida hayajonga soldi, qalbimiz to‘lqinlandi, O‘zbekiston fuqarosi bo‘lganimizdan, shunday mehribon va g‘amxo‘r Prezidentimiz borligidan g‘ururlandik.

Hozir Yaqin Sharq mintaqasidagi mojaralar, qo‘shni Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuvlar barchamizni jiddiy xavotirga solmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida dunyoning narigi chetida ottilgan bir o‘q minglab kilometr uzoqlikdagi mamlakatlarga ta‘sirini o‘tkazadi. Chunki texnologik zanjir orqali bog‘langan savdo-logistika, tovar ayirboshlash, masofaviy biznes va shunga o‘xshash boshqa muloqot jarayonlari iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta‘sir qiladi, putur yetkazadi.

Biz davlatimiz rahbarining kechagi muloqotlardagi siyosiy irodasi haqida gapirayotgan edik. Prezidentimiz bu mamlakatlarda bo‘lib turgan O‘zbekiston fuqarolarining taqdiri, xavfsizligi, salomatligi haqida so‘radi. Yurtdoshlarimizni vatanga qaytarish masalalari muhokama qilindi, shu maqsadda ko‘rilayotgan chora-tadbirlar uchun alohida minnatdorlik bildirildi.

Bu bir qarashda siyosiy muloqot rumumiga o‘xshab ko‘rinishi mumkin. Lekin tahlikali hududlarda qolib ketgan yurtdoshlarimizni vatanga qaytarish bo‘yicha Prezidentimizning shaxsan o‘zi tegishli idoralar rahbarlariga ko‘rsatmalar bergani, bu masalaga hukumat darajasida e‘tibor qaratilishi kerakligini aytgani va nihoyat, shu kunga qadar minglab yurtdoshimiz tinch-osoyishta, fayzli, aziz

zaminimizga sog‘omon olib kelingani har birimizda mehr va birdamlik tuyg‘ularini jo‘sh urdirdi.

So‘z isboti bilan. Prezidentimizning maxsus topshirig‘iga muvofiq minglab o‘zbekistonliklar evakuatsiya qilingani haqidagi xabarlarni kechadan buyon ijtimoiy tarmoqlarda o‘qiyapmiz.

Ularda aytilishicha, Yaqin Sharqda harbiy keskinlik kuchaygani sabab 28-fevraldan boshlab Dubay, Sharja, Madina, Doha, Jidda, Tel-Aviv, Tehron va Kuvayt yo‘nalishidagi aviareyslar to‘xtatilgan. Natijada minglab o‘zbekistonlik chet elda qolib ketgan.

Faqatgina O‘zbekiston Prezidentining maxsus topshirig‘i bilan evakuatsiya ishlari boshlangach, rezident aviakompaniyalar maxsus reyslar amalga oshirib, qisqa vaqt ichida 5 mingdan ortiq fuqaro vatanga qaytarildi.

Jarayonni muvofiqlashtirish uchun “O‘zaviatsiya” agentligida 24/7 rejimida ishlaydigan shtab tashkil etildi.

Yozayotganimiz shu yerga yetganda navbatdagi xabar tarqaldi. Tashqi ishlar vazirligining xabar berishicha, 5-mart soat 10:00 holatiga O‘zbekistonning jami **9361 nafar fuqarosi ona yurtimizga qaytarildi**. Jumladan, Saudiya Arabistonidan 8114, BAADan 1192, Erondan 23, Bahrayndan 25, O‘mondan 7 nafar yurtdoshimiz O‘zbekistonga olib kelingan.

Hozir bu gaplarni yozishgina oson. Aslida, har bir fuqaroni vatanimizga olib kelish ortida qanchalar murakkab, qaltis, tahlikali va nozik jarayonlar borligini boshidan o‘tkazganlar, shu ezu ish boshida turganlar biladi, xolos.

Biz faqat bu yerdan turib, shu kunlarda Yaqin Sharqdan chiqib ketish 350 ming dollarga yetgani haqidagi xabarlar haqida aytishimiz mumkin. So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, Yaqin Sharqdan xavfsiz hududga yetib

olish uchun 10 soatlik yo‘ltanlamas mashina safari va xususiy samolyot uchun 350 ming dollar to‘lashga tayyor mijozlar navbati paydo bo‘lgan.

Bizda esa mutlaqo boshqacha manzara: Prezidentimizning mehrli siyosati tufayli 10 mingga yaqin o‘zbekistonlik o‘z ona yurtiga beg‘araz olib kelindi. Bu ham mamlakatimizda inson qadri ulug‘lanayotgani, O‘zbekistonning har bir fuqarosi doimo davlat himoyasida ekanini amalda namoyon etadi.

Shu o‘rinda hasratli bir xotira yodga tushdi. Bir zamonlar biz boshqa davlat fuqarolariga havas qilar edik. Ular o‘z davlati muhofazasida bo‘lganidan, hamisha o‘zini mag‘rur va xavotirsiz tutishdan o‘zimizni ulardan kam tutardik. Bugun ko‘plab mamlakat fuqarolari o‘zbekistonliklarga, O‘zbekiston Prezidentining insonparvar siyosatiga, o‘z fuqarolarini tashlab qo‘ymaganiga havas qilmoqda. Xususan, Yaqin Sharqdan olib kelingan o‘zbekistonliklar borasida ijtimoiy tarmoqlar orqali ijobiy fikrlar bildirayotgan chet ellik insonlarning gap-so‘zlarini o‘zingiz ham ko‘rib turibsi.

Ulug‘ ayyom kunlarida amalga oshirilayotgan bunday ezgu chora-tadbirlar har birimizni qayta va qayta keng mushohada qilishga chorlaydi. Dunyo yangi-yangi tahlikalar qurshovida qolmoqda. Turli mojarolar tufayli begunoh odamlar, ayollar va bolalar halok bo‘lyapti. Bunday hududlarda bir soatlik tinchlik, bir nafaslik osoyishta uyqu, farzandlaringiz bilan xotirjam nonushta qilish bir zumda armonga aylanib qolmoqda.

Bu qayg‘uli manzara bugun barchani jiddiy xulosalar qilishga undaydi. Xulosa qanday bo‘lishini esa yurtdoshlarimiz yaxshi biladi, albatta.

**Ulug‘bek ASROROV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



AYOL AZIZ, AYOL MUKARRAM

Mo‘jizaga mengzalguvchi zot — ayol, chiroyi uch kunlik hilolmonand parivash — ayol, aql-u zakosiga yetti iqlim donishmandlari ham tahsin aytuvchi zot — ayol. Onalik rutbasi bilan eng ulug‘ martaba sohibasi ham — ayol!

Ayol e‘zoz topgan yurtda yuksalish, onaga ehtirom ko‘rsatilgan oilada farovonlik, pirovardida ertamiz egalari — farzandlarimiz baxtli bo‘ladi. Ona duosi bilan yuksalgan xonodan — tinchlik va barakaning maskani, ayol salohiyati bilan tarqatqiy etgan jamiyat esa ma‘rifatlidir.

Bugungi O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, oila institutini mustahkamlash davlat siyosati darajasida ustuvor vazifaga aylandi. Bu yo‘nalishdagi islohotlar, qabul qilinayotgan dastur va tashabbuslar yuzaki

va qo‘l uchida emas, ular har bir oilaning farovonligi, har bir ayolning imkoniyati, har bir farzandning ertangi kuni bilan bevosita bog‘liq hayotiy dastur o‘laroq shakllangani bilan ahamiyatli.

➤ Давоми 3-бетда



MO‘TABARLIK SAODATI

➤

FARMATSEVTIKA SOHASIDA ILG'OR TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH JADALLASHTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Import qilinayotgan dori vositalarining qariyb yarmi 34 ta xorijiy ishlab chiqaruvchi hissasiga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan ularning ishlab chiqarishini O'zbekistonda tashkil etishni rag'batlantirish zarurligi ta'kidlandi. Import bilan shug'ullanuvchi yirik korxonalarga ham ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirib, brendli dori vositalarini mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha tashabbus ko'rsatish tavsiya etildi.

Bu jarayonni rag'batlantirish maqsadida korxonalar brendlardan foydalanish uchun to'laydigan royaltidan soliq 20 foizdan 5 foizga tushiriladi.

Original dori vositasi yaratilganidan 20-25 yil o'tgach, boshqa farmatsevtika korxonalari ham uni ishlab chiqarish huquqiga ega bo'ladi. Bunday dori vositalarini o'zlashtirish ichki bozorda narxlarini bir necha barobar arzonlashtirish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan talab yuqori bo'lgan bunday preparatlarni bir yil ichida o'zlashtirgan korxonalarga texnologiya transferi xarajatlarining yarmi Farmatsevtika jamg'armasi hisobidan qoplab beriladi.

Shuningdek, eng ko'p import qilinayotgan 100 turdagi dori vositalarini ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida "Toshkent farma park" hududi yana 100 gektarga kengaytiriladi.

Yig'ilishda farmatsevtika mahsulotlari eksporti masalalari ham ko'rib chiqildi. Bugungi kunda tarmoq eksporti 220 million dollarga yetgan bo'lsa-da, uning atigi 14 million dollari dori vositalari hissasiga to'g'ri keladi.

Shu munosabat bilan korxonalarni xalqaro standartlarga moslashtirish muhimligi ta'kidlandi. Hozirda 58 ta dori ishlab chiqaruvchi korxona milliy GMP sertifikatiga ega. Endi ularni Yevropa GMP standartlariga moslashtirish zarurligi qayd etildi.

1-iyundan boshlab mahalliy korxonalarning YevroGMP sertifikatini olish xarajatlarining 50 foizi Savdoga ko'maklashish jamg'armasi hisobidan qoplab beriladi.

Yig'ilishda davlat xaridlari tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Qayd etilishicha, mahalliy lashtirish darajasi 30 foizga yetmagani sababli ayrim korxonalar davlat korxonalariga mahsulot sotish imkoniyatiga ega emas.

Shu munosabat bilan 1-sentabrgacha mahalliy mahsulot sertifikatiga ega tadbirkorlarga mahalliy lashtirish darajasidan qat'i nazar, davlat xaridlarida ishtirok etishga ruxsat berilishi belgilandi.

Qayd etilishicha, o'tgan yili mamlakatimizda 57 mingdan ortiq nomdagi ro'yxatdan o'tmagan va kontrafakt dori vositalari aniqlangan.

Shu bois, dori larning noqonuniy savdosiga qarshi kurashni kuchaytirish, sifati shubhali mahsulotlar aylanmasi uchun javobgarlikni keskin kuchaytirish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda sohada ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish masalasi ham ko'tarildi.

Bugungi kunda farmatsevtika sohasidagi 6 ta ilmiy-tadqiqot institutida 300 dan ortiq olim faoliyat yuritmoqda, oliy ta'lim muassasalari esa har yili qariyb 1 ming nafar mutaxassis tayyorlaydi. Biroq ilmiy ishlanmalarni sanoatga joriy etish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Shu munosabat bilan kimyo-farmatsevtika, vakcina va zardoblar hamda sharq tabobati institutlari negizida Milliy biofarmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. U "Toshkent farma park" hududida joylashtirilib, ilmiy tadqiqotlarni bevosita ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish imkoniyati yaratiladi.

Park hududida klinikoldi tadqiqotlar laboratoriyasi, biologik va kimyoviy tadqiqotlar markazlari hamda 250 o'rinli xalqaro klinik tadqiqotlar markazi tashkil etiladi. Shuningdek, Toshkent farmatsevtika instituti va Farmatsevtika texnika universiteti professor-o'qituvchilari o'z ilmiy faoliyatini farma park hududida olib boradi. Talabalar esa korxonalarda dual ta'lim asosida o'qib, ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yangi dori vositalarini ishlab chiqarishga jalb qilingan olimlar ishtirokidagi loyihalar uchun korxonalarning 100 ming dollargacha xarajatlari qoplab beriladi. Mahalliy olimlar yaratgan yangi preparatlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan korxonalarga esa ularni ro'yxatdan o'tkazish va klinik sinovlar uchun 100 million so'mgacha subsidiya ajratiladi.

Yig'ilishda farmatsevtika korxonalari vakillarining takliflari va tashabbuslari eshitildi, mutasaddilarning hisobotlari tinglandi.

O'ZA



VATANGA MUHABBAT, KELAJAKKA ISHONCH BILAN YASHASH BAXTI

Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Ayol – oila ustuni, jamiyat tayanchi va kelajak avlod tarbiyachisi. Uning sadoqati, mehr-muhabbati, fidoyiligi, azmu shijoati u voyaga yetkazayotgan farzandlar orqali jamiyatga ko'chadi. Davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki esa taraqqiyotni jadallashtiradi. Shu bois, yurtimizda ayollar kasbi va irqidan qat'i nazar, avvalo, ona sifatida qadrlangan, e'zozlangan.

Inson qadrini ulug'lash ham xotin-qizlarimizni ulug'lashdan boshlanadi. Alisher Navoiy bobomizning "Jannat bog'idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin", degan so'zlari zamidra chuqur ma'no bor. Chunki hayotimizning ma'no-mazmuni va butun borlig'imizni ulardan ayro holda tasavvur etolmaymiz.

So'nggi yillarda go'zallik va nazokat, mehr va sadoqat timsoli bo'lgan xotin-

ko'rsatmoqda. Bugungi o'zbek ayoli nafaqat oila bekasi, balki yetuk rahbar sifatida ham o'zini namoyon etayotir.

Bo'lg'usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo'lmish qizlarimizning oliy ta'lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu bejiz emas. Chunki bir ayolni o'qitish bir oilaning o'qimishli bo'lishiga zamin yaratadi. Shu ma'noda, ularni qo'llab-quvvatlash orqali xalqimizning siyosiy



qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, ehtiyojmand xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida tarixiy islohotlar kechmoqda.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid ko'plab qonunchilik hujjati qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekani, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, boshqa sohalarda teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash mustahkamlab qo'yildi.

Yurtimizda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor tufayli mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyoda eng yuqori o'rinlarga ko'tarildi. Hozir ayollar soni Qonunchilik palatasida deputatlar umumiy sonining 38 foizi, Senatda esa 27 foizini tashkil etmoqda. Qonunchilikni mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunlarning adolati va ta'sirchan bo'lishida ham ularning hissasi juda katta bo'lmoqda.

Xotin-qizlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari doirasidagi keng ko'lamli islohotlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi imiji, xalqaro reyting va indekslardagi o'rni, albatta, ijobiy ta'sir

madaniyati oshadi, ma'rifati jamiyat shakllanadi. Boshqacha aytganda, ularning o'qib, oliy ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi.

FARMONDA ZO'RAVONLIK SODIR ETGAN SHAXSLARNI MAJBURIY RUHIY DIAGNOSTIKADAN O'TKAZISH BO'YICHA TARTIB ISHLAB CHIQILISHI HAM BELGILANGAN. BU YONDASHUV JINOYATNI FAQAT JAZOLASH BILAN CHEKLAMAY, UNING ILDIZLARINI ANIQLASH VA KELGUSIDA TAKRORLANISHINING OLDINI OLISHGA QARATILGANI BILAN E'TIBORGA MOLIK. PSIXOLOGIK KORREKSIYA DASTURLARI JORIY ETILISHI HAM ZO'RAVONLIKKA MOYIL SHAXSLAR BILAN TIZIMLI ISHLASH IMKONINI BERADI.

So'nggi yillarda ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha ham mustahkam huquqiy va institutsional baza yaratildi. Himoya orderi, maxsus yordam markazlari, profilaktika va

reabilitatsiya mexanizmlari davlatning inson manfaatlariga yo'naltirilgan kompleks siyosat yuritayotganini ko'rsatadi. Bu choralar zo'ravonlik holatlarini aniqlash, ularga tezkor huquqiy baho berish va jabrlanuvchilarni davlat himoyasi bilan qamrab olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Prezidentimizning shu yil 3-martdagi "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni tom ma'noda mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, oila institutini mustahkamlash, ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat bo'ldi.

Farmon bilan ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish tizimini takomillashtirish orqali ularning soni keskin qisqartiriladi, bunday holatga uchragan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etiladi. Bu esa ularning hayot darajasini yanada yaxshilash, sifati ta'lim olishi, kasb-hunar egallashiga katta turtki beradi.

Erta nikohni yoki voyaga yetmaganlar o'rtasidagi majburiy munosabatlarni yashirgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirilayotgani,

Homilador talaba-qizlarga yoki 3 yoshgacha bo'lgan farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi talabalarga oliy ta'lim olish uchun "ikkinchi imkoniyat" yaratilmoqda. Ya'ni 2026/2027-o'quv yilidan boshlab kursdan kursga qolgan yoxud talabalar safidan chiqarilgan shaxslarga, istisno tariqasida, fanlar farqini qayta o'zlashtirish sharti bilan ta'limni davom ettirish imkoni beriladi. Eng muhimi, talabalar fanlar farqini mustaqil o'zlashtirishi uchun qo'shimcha muddat berilib, boshqa zarur shart-sharoitlar tashkil etiladi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, ushbu yangiliklar minglab xotin-qizlarimizning ayni dilidagi gap bo'ldi, ularni faollikka chorlagani, harakatga keltirgani rost. Bu, o'z navbatida, har bir fuqaro qalbiga yorug'lik, ertangi kunga sobit ishonch olib kirdi. O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan yuksak e'tiborning yorqin namunasi ham shu emasmi aslida?!

Himoya orderi berilgan jabrlanuvchi xotin-qizlarning aloqa vositalariga Ijtimoiy himoya milliy agentligining tazyiq va zo'ravonlik holatlari to'g'risida zudlik bilan xabar qilish imkonini beruvchi ("SOS" chaqiruv) "my.ihma.uz" mobil ilovasi o'rnatilgani ayni muddao bo'ldi. Natijada zo'ravonlik oqibatlarini bartaraf etish emas, balki uning oldini olishga qaratilgan profilaktik tizim kuchayadi.

Farmonda zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni majburiy ruhiy diagnostikadan o'tkazish bo'yicha tartib ishlab chiqilishi ham belgilangan. Bu yondashuv jinoyatni faqat jazolash bilan cheklamay, uning ildizlarini aniqlash va kelgusida takrorlanishining oldini olishga qaratilgani bilan e'tiborga molik. Psixologik korreksiya dasturlari joriy etilishi ham zo'ravonlikka moyil shaxslar bilan tizimli ishlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda oqila, go'zal ayollarimiz doim e'zozda, tashabbuslari har tomonlama qo'llab-quvvatlanayapti. Bir paytlar ayollarga imtiyozli uy berishga imkon ham, qonuniy asos va mablag'lar ham bo'lmagan, bugun esa minglab muhtoj ayollarga yangi turar joylar topshirilmoqda.

Bunday ezu ishlar orqali qancha xonadonlarga quvonch va shodlik kirmoqda, qancha odamlarning hayot darajasi va sifati tubdan o'zgarmoqda. Minglab ayollarimizning ruhi ko'tarilib, ularning ertangi kunga ishonchi mustahkamlandi. Hozir xotin-qizlarimiz nafaqat o'qituvchi, shifokor, tadbirkor yoki fermer, balki rahbarlik lavozimlarida ham faoliyat yuritmoqda. O'zingiz aytay, dunyoning qaysi davlatida ayollarga bu kabi imtiyoz va e'tibor qaratilmoqda? Fikrimcha, bunday davlatlar juda oz.

Ayol — nafis xilqat. Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham, avvalo, oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan ayollarga bog'liq. U baxti bo'lsa, tabiiyki, oilada ham, jamiyatda ham sog'lom ruhiyat ustuvor, ayol qadri, inson qadri ulug'langan yurtda esa tinchlik va farovonlik barqaror bo'ladi.

Dil izhori

Davlatimiz rahbarining farmoniga muvofiq, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan ilm-fanni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy salohiyatini yuksaltirish borasida salmoqli natijalarga erishgan bir guruh xotin-qizlar yuksak orden va medallar bilan mukofotlandi. Shular qatorida men ham "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Bu yuksak mukofot nafaqat bir insonning mehnati va fidoyiligi berilgan munosib baho, balki yurtimizda ayollarning ilm-fan va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yuqori qadrlanayotganining yana bir yorqin ifodasidir.

Ayol zoti azaldan jamiyatning ma'naviy ustuni, tarbiya va ma'rifat manbaidir. Bugun esa ular nafaqat oilada, balki ilmiy



Naibaxon MAMADALIYEVA, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori maslahatchisi

laboratoriyalar, universitet auditoriyalari, innovation markazlarda ham katta natijalarga erishmoqda. Olimlarning izlanishlari yangi

ilmiy yo'nalishlarning shakllanishi, mamlakat iqtisodiyoti va texnologiyalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz rahbarligidagi keng ko'lamli islohotlarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, jamiyatdagi faolligini oshirish masalasi alohida o'rin egallaydi. "Ayollar daftari" tizimi, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, ta'lim va bandlik sohasidagi imtiyozlar — bularning barchasi mamlakatimizda ayollarga yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir. Ayniqsa, ilm-fan sohasida ayollarning faolligini oshirish, ilmiy faoliyatga jalb qilish borasidagi tashabbuslar kelajakda yana ko'plab olimlarni yetishib chiqishiga zamin hozirlamoqda.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligidagi faoliyatim ham ana shu islohotlar samarasidir. Bu zimmamga yanada ko'p mas'uliyat yuklaydi. Bugun mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish, ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash va ayniqsa, xotin-qizlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Keng qamrovli islohotlar natijasida ayollarning ta'lim olishi, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishi, rahbarlik va jamoatchilik faoliyatida faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyat yaratilmoqda.



Agentligimiz tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ham ana shu islohotlarning amaliy samarasini namoyon etmoqda. Ayniqsa, ilm-

fan bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilari ayol-qizlar soni yil sayin ortib borayotir. Ular metrologiya, standartlashtirish, texnik jihatdan

tartibga solish, sifat menejmenti kabi muhim sohalarda tadqiqotlar qilib, mamlakatimiz iqtisodiyoti va sanoati rivojida munosib o'rin egallayapti.

Texnik jihatdan tartibga solish tizimi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida sifat, xavfsizlik va ishonchlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu sohada ilmiy tadqiqotlar yangi standartlar ishlab chiqish, zamonaviy o'lchash texnologiyalarini joriy etish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish kabi vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Agentlik tizimida faoliyat yuritayotgan olim ayollar aynan shu muhim yo'nalishlarda izlanishlar olib borib, milliy metrologiya va standartlashtirish tizimini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda ayollarning ilm-fandagi ishtiroki mamlakat taraqqiyotining muhim omillari. Zero, intellektual salohiyat, bilim va izlanishga intilish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Agentlik tizimida faoliyat yuritayotgan fidoyi olim ayollar ham o'z mehnati, izlanishlari va tashabbuslari bilan mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi O'zbekistonda ilm-fan, innovatsiya va taraqqiyot yo'lida ayollarning o'rni tobora mustahkamlanib borayotganining yana bir yorqin dalilidir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

AYOL AZIZ, AYOL MUKARRAM

2026-yil 6-mart, 45-son



Zulaiho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Yangi imkoniyatlar

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ko'p millatli xalqimizning oqilona taklif-tajribasi, odil muhokamasi asosida takomillashtirilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish sifatida yanada aniq ko'rsatkichlar bilan mustahkamlandi.

Prezidentimizning "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida oilani mustahkamlash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi 25-maqсад avval xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, hozir oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan maqsad sifatida o'zgartirilgan ham oilaning jamiyat hayotidagi o'rni yanada yuksalganining belgisi.



Yangi maqsadlar qatoriga dolzarb masala: oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha o'quv kurslariga yoshlarni jalb etishni joriy yilda 50 foiz oshirish va 2030-yilga qadar 80 foizini qamrab olish, oila va xotin-qizlar maskanlarida ko'rsatiladigan xizmatlarni 40 foizdan 60 foizga ko'tarish, shuningdek, xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli savdixonlikni kuchaytirish, manzilli qo'llab-quvvatlash orqali xotin-qizlarni ehtiyojmandlikdan chiqarish kabi 11 ta maqsadli ko'rsatkich belgilandi.

Lider tadbirkor ayollar orqali ehtiyojmand xotin-qizlarni daromad topishga o'rgatish ko'lamlari 100 ming nafarga yetkazish tashabbusi, shu bilan birga, mahallalarda xotin-qizlar bandligi va salomatligini mustahkamlash yo'nalishida 3940 ta markaz tashkil etilishi rejalashtirilgan ham strategiyaning inson kapitalini kompleks qo'llab-quvvatlashga qaratilganini ko'rsatadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishga jalb etiladigan xotin-qizlar soni har yili 100 ming nafarga, jami 500 ming nafarga yetkazilishi belgilandi.

Bundan tashqari, siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning ulushi 50 foizga, sudyalari orasida 30 foizga oshirish, ayollar tomonidan

sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni keskin kamaytirish kabi ayollar manfaatini ko'zlangan maqsadlar ham o'rin olgan.

Ha, marralar baland olinib, yaqin besh yillikda ulkan maqsadlar qo'yilmoqda. Bundan anglashiladiki, bugun har bir ayolning farovonligi oilaning ichki masalasi emas, butun mamlakat taraqqiyotining mezonini ham drayveridir. Yangilangan strategiyaning eng katta qiymati ham shunda.

Bilimli jamiyat tayanchi

Ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadni ko'zlar ekan, shubhasiz, bunda ma'rifatli jamiyat hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda har bir oilada oliy ma'lumotga ega mutaxassislar bo'lishini ta'minlash, ayniqsa, xotin-qizlar orasidan kamida 1 nafari oliy ma'lumotli bo'lishi uchun sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu maqsadda xotin-qizlarning oliy va undan keyingi ta'limini davom ettirishini qo'llab-quvvatlovchi yangi tashabbuslar amaliyotga joriy etilib, qator imtiyoz va subsidiyalar berilishi natijasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

Xususan, 2025-yilda oliy ma'lumotga ega bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlarga ajratilgan grantlar miqdori ikki mingdan to'rt mingtaga yetkazildi, ya'ni ikki barobar oshirildi. Besh yil ish stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar kontrakt kvotasi esa 500 tadan 2500 taga oshirildi. 2025-2026-o'quv yilida qariyb 255,5 ming xotin-qiz oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilindi.

O'tgan yili oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan 128 mingdan ziyod talaba-qizdan qariyb 117 ming nafarining bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. Ushbu jarayon ayni paytda ham davom etmoqda.

Bundan tashqari, 262 ming xotin-qiz "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida axborot



ta'minlashga qaratilgan 17 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, budget rejalashtirishda gender yondashuvini joriy etish bo'yicha indikatorlar ishlab chiqildi. Davlat organlarida gender audit o'tkazish uslubiyati yangilani, ayrim vazirliklarda amalda tatbiq etildi.

Rahbar kadrlar tayyorlashda ham siljish bor: milliy kadrlar zaxirasida xotin-qizlar soni 1267 nafarga yetdi (27 foiz), "Rahbar ayollar maktabi"da o'qiganlardan 60 nafari yuqori lavozimlarga tayinlandi. Ta'limda xotin-qizlar ulushi barqaror o'smoqda: oliy ta'lim bakalavriatida talabalarining 54 foizini, magistraturada tahsil oluvchilarning 67 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda.

Gender asosida rejalashtirish va budgetlashtirish amaliyotini takomillashtirish maqsadida gender indikatorlari ishlab chiqilib, budget dasturlari loyihalarida qo'llash uchun barcha vazirlik va idoralarga yetkazildi.

2025-yil davomida budget tashkilotlarida ishlovchi 1,3 million xotin-qizning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari uchun 64,8 trillion so'm, 162 mingga yaqin budget tashkilotida ishlovchi ayollarga homiladorlik nafaqasi uchun 1,5 trillion so'm yo'naltirildi.

Shuningdek, xususiy sektorda ishlovchi ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 12,3 ming xotin-qizga budgetdan 32,8 milliard so'm, ishsiz hamda ish qidirayotgan xotin-qizlarni kasbga tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida esa Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan 259,6 ming xotin-qiz uchun 245,4 milliard so'm ajratildi.

O'z navbatida, ipoteka kreditlari bo'yicha to'lab beriladigan boshlang'ich badal to'lovlari uchun 8,6 ming xotin-qizga 256,7 milliard so'm subsidiya, bola tug'ilganda bir martalik to'lov uchun (suyunchi puli) 242,3 ming ayolga 205,3 milliard so'm hamda kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam uchun ularning 671,2 ming nafariga 4,2 trillion so'm davlat budgetidan to'lab berildi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan 17,8 ming xotin-qizning to'lov kontraktini to'lab berish uchun 122,9 milliard so'm, tijorat banklari tomonidan esa 67,3 ming xotin-qizga ta'lim kreditlari uchun 1,1 trillion so'mga yaqin mablag' ajratildi.

Iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishida xotin-qizlarning 12,4 milliard so'mlik 21 ta startapi qo'llab-quvvatlandi, grantlar orqali 3,1 milliard so'mlik 23 ta ijtimoiy loyiha amalga oshirildi. "Gender-madad" platformasi orqali 2,1 mingdan ortiq huquqiy maslahat berilgan, "Gender.stat.uz" tizimiga 217 dan ziyod ko'rsatkich joylashtirilgan ham ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirdi.

Xalqaro e'tirof

Yangi O'zbekistonimizdagi bu kabi keng ko'lami islohotlar bugun xalqaro maydonda ham aniq natijalari bilan e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, bu xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlarimiz barqaror yaxshilanib borayotganida yaqqol ko'rinmoqda. O'zbekiston Ochiq gender ma'lumotlari (Open Data) indeksida eng yaxshi 20 ta mamlakat qatoriga kirdi, parlament quyi palatasida ayollar faolligi bo'yicha dunyoda 15-o'rinni egalladi.

Islohotlarning xalqaro maydondagi e'tirofini anglatuvchi muhim yangilikka alohida to'xtalish zarur. Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksi mamlakatimiz uchun ustuvor reyting va indekslar qatoriga kiritilgan. Yaqinda ushbu indeksning yangilangan metodologiyasi asosida tayyorlangan hisoboti natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston o'z pozitsiyasini 43 pog'onaga yaxshilab, 100 dan 82,1 ball bilan 190 ta davlat orasida 48-o'rinni egalladi.

E'tiborli jihati shundaki, indeksning yangilangan metodologiyasi faqat qonun normalarini tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, ularning ijrosini ta'minlovchi mexanizmlarni ham qamrab oldi. Ya'ni ekspertlar tomonidan qonunlarning hayotdagi amaliy ifodasi, ayniqsa, xotin-qizlar hayotiga ta'siri va ko'riyotgan chora-tadbirlar samaradorligi ham baholandi. Natijada mamlakatimizning gender tenglikka oid qonunchiligi 82,1 ballga baholandi. Bu global o'rtacha ko'rsatkichdan qariyb 15 ball, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi o'rtacha ko'rsatkichidan esa 1,5 ball yuqori.

Hisobotda mamlakatimizdagi qator tizimli islohotlar ijobiy baholandi. Jumladan, davlat xaridlari tizimida genderga yo'naltirilgan qoidalar joriy etilgan, qonunchilikka ayollar tadbirkorligini rag'batlantiruvchi normalar kiritilgan, ijtimoiy himoya va mehnat sohasidagi ayrim cheklolvar qayta ko'rib chiqilgan alohida qayd etildi. Ayniqsa,



O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida davlat xaridlarida gender omilini hisobga oluvchi qonunchilikka ega bo'lgan sanoqli davlatlardan biri ekanini ta'kidlanishi mamlakatimizning institutsional tajribasi yuqoriligi hamda xalqaro standartlarga mos siyosiy irodasining e'tirofidir.

Shuningdek, mazkur hisobotda O'zbekiston so'nggi yillarda tadbirkorlik sohasida gender tenglikni ta'minlovchi yangi islohotlarni amalga oshirgan davlat sifatida ham e'tirof etildi. Natijada indeksning qonunchilik tahlilidagi qator indikatorlari bo'yicha mamlakatimiz maksimal 100 ball

to'pladi. Bunday natija, avvalo, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash yo'nalishidagi islohotlarning maqsadli va tizimli ekanining yorqin ifodasidir. Gap shundaki, O'zbekiston xotin-qizlar uchun teng huquqiy muhit yaratish borasida Yaponiya, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Braziliya, Gruziya, Singapur va Hindiston kabi davlatlarni ortda qoldirgan ham qayd etildi. Bu esa mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi ortgan, islohotlarimiz natijasi global baholash tizimlarida ham munosib aks etayotganining amaliy isbotidir.

"Ayollar, biznes va qonun" indeksida bunday yuqori natijaga o'z-o'zidan erishilgani yo'q, albatta. Bunga xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar qamrovli kengayib, samaradorligi ortib borayotgani asos bo'lmoqda. Masalan, 2025-yilda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida 427 ming xotin-qizga jami 23 trillion 360 milliard so'm, "Oilaviy tadbirkorlik", "Biznesga birinchi qadam", "Mahalla loyihasi" dasturlari doirasida esa 352 ming ayolga 8 trillion 611 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. 1192 mahallalarda Xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari tashkil etildi.

Xorijga ketgan va farzandlarini nazoratsiz qoldirgan xotin-qizlarni aniqlash hamda ularni vatanga qaytarish bo'yicha Chirchiq shahrida yaratilgan tajriba ommalashtirilib, onlayn muloqot orqali migratsiyadagi 270 mingdan ortiq xotin-qizning oilalari manzilli o'rganildi.

Xalqaro e'tirof va erishilgan natijalar yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, jamiyatdagi mavqeiini mustahkamlash bo'yicha tizimli islohotlar amalda samara berayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Zotan, yaratilayotgan imkoniyatlar har bir ayolning hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy faolligi va ertangi kunga mustahkam ishonchida o'z aksini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, ko'z o'ngimizda yuz berayotgan bu kabi voqealiklar, xalqaro darajadagi yutuqlar "Inson qadri uchun" tamoyili hayotga izchil tatbiq etilayotganidan faxrlanish hissinii tuyamiz, ayni shu yo'nalishda yanada mas'uliyat bilan tadbir boshlashimizga turtki beradi.

E'zoz va e'tibor

*Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarining nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

Ayol va bahor, yangilanish va nafasot go'yo bir-biriga egiz tushunchalar. Orziqib kutganimiz — ko'klamning ilk kuni ulug' shoir, atqoli jamoat arbobi, sadoqat timsoli Zulfiyaxonim tavalludining 111 yilligini yurtimiz bo'ylab keng nishondan. "Diyyor nasib yana siz bilan!" nomi ostida anjumanlar o'tkazildi, ulug' shoir xotirasiga ehtirom ko'rsatildi.

Mazkur ma'rifiy-madaniy tadbirlar, xotira kechalari, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalari ishtirokida musbairalar "Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtlidir!" shiori ostida 15-fevraldan 15-martga qadar davom etayotgan "Ayollarni e'zozlash" oyiligi doirasida o'tkazilmoqda. Oylik doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda fidoyi va ibratli ayollar mehnatini e'tirof etishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlar tashkil etilmoqda. Mahallalarda xotin-qizlar bilan manzilli ishlash, muammolarini barvaqt aniqlash va hal etish, huquqiy, tibbiy va ijtimoiy ko'mak ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Erta aniqla — hayotni saqla" shiori ostida ayollar salomatligini asrash, xavfli kasalliklarni barvaqt aniqlashga qaratilgan skrinning tekshiruvlari esa e'zozning eng amaliy ko'rinishi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, 2025-yilda onkologik kasalliklarni erta aniqlashni tashkil etish borasida qariyb to'rt million ayol onkoskrining tekshiruvidan o'tkazildi, 3300 nafardan ortig'i mutaxassis tekshiruviga yuborildi. Natijada ikki yarim mingdan ziyodida kasallik erta bosqichda aniqlandi. 3245 nafari sog'lomlashtirishga jalb etildi.

Qo'mitimiz tomonidan oilani jamiyatning strategik ijtimoiy instituti sifatida mustahkamlash maqsadida davlat siyosati istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishni o'z ichiga olgan "Oila farovonligi — 2030" milliy dasturi ishlab chiqildi.

Asrlar davomida ayol zotiga ehtirom ko'rsatish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, el-yurt hurmatiga sazovor ayollarni qadrlash euzu an'anamizga aylangan. Ana shu qadriyatning yorqin ifodasi sifatida 8-mart — nafasot ayyomi arafasida 28 qizimiz Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, 72 ayolimiz turli davlat mukofotlari, 351 nafari "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Muxtasar aytganda, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilab olingan maqsadlar xotin-qizlarimiz istiqbollarini yanada nurli, oilalarni barqaror va jamiyatni farovon qilishga qaratilgan eng siyosatning hayotiy in'ikosidir. Zero, ayol qadr topgan yurtda ertangi kunga ishonch ham, yutuqlar ham bardavom bo'ladi.

MARKAZIY OSIYONing ZAMONAVIY TEMIR YO‘L

Temir yo‘l jahon iqtisodiyoti va jamiyatlar taqdirini tubdan o‘zgartirib yubora oladigan muhim transport tarmog‘idir. Shu sabab u sanoat inqilobi davridan buyon muttasil rivojlanib kelmog‘da. Zero, temir yo‘l transporti orqali xomashyo va tayyor mahsulotlarning tez hamda arzon tashilishi har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiradi. Bu tarmoq yetib borgan hududlarda yangi shahar va aholi punktlari, bozor va savdo markazlari paydo bo‘lishi ham bejiz emas. Hududlararo temir yo‘l aloqasining yo‘lga qo‘yilishi odamlarning erkin harakatlanishi, hududiy birlik va madaniy integratsiyani kuchaytiradi.

Markaziy Osiyo mintaqasi tabiiy geografik joylashuv sabab azaldan Sharq G‘arb madaniyatlari uchun o‘ziga xos chorraha vazifasini bajarib kelgan. So‘nggi yillarda dunyoda kechayotgan geosiyosiy vaziyat mintaqamizning bu boradagi ahamiyatini yanada oshirdi. Xususan, mamlakatimiz Osiyo va Yevropa qit‘alari, shuningdek, shimoliy va janubiy yo‘nalishlarni bog‘lovchi asosiy bo‘g‘in sifatida dunyoning muhim transport va logistika markazlaridan biriga aylanmog‘da. Ana shunday tarixiy vaziyatda zamonaviy, energiya samarador temir yo‘l tarmoqlarini yaratish va takomillashtirish ahamiyati har qachongidan muhim.

Davlatimiz rahbarining qat‘iy siyosiy irodasi sabab so‘nggi o‘n yillikda Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi. Global dengiz xabaridan uzoq, jahon bozorlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkonini bo‘lmagan hudud o‘laroq mintaqada davlatlari uchun eng oqilona yo‘l ham shu edi. Zero, geografik oqsoqlikni yengib o‘tish uchun mintaqaviy va xalqaro integratsiya bugun har qachongidan ham dolzarblashib bormog‘da.

Mintaqaviy integratsiya temir yo‘l tarmoqlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Zero, yangi temir yo‘l tizimi Markaziy Osiyo davlatlari uchun eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish va shimoliy yo‘laklarga qaramlikni kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Transmintaqaviy bog‘liqlik esa loyihalar muvaffaqiyatini ta‘minlab, transport va logistika xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, eksport uchun yangi bozorlarga yo‘l ochadi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentabrda bo‘lib o‘tgan 72-sessiyasida nutq so‘zlab, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini muntazam o‘tkazish, temir yo‘l tarmoqlarini takomillashtirishdagi mintaqaviy hamkorlikni asosiy maqsad etib belgilash tashabbusini ilgari surgan edi.

Zamon talabiga ko‘ra, bugun davlatimiz siyosatida qishloqlarda har bir oilani tomorqadan samarali foydalanish, fuqarolarni tadbirkorlikka qiziqtirish, hududlarda iqtisodiy zonalarni tashkil etish va milliy mahsulotlar bozorini kengaytirish maqsadlari ustuvorlik qilmog‘da.

Hozir ish bilganing zamonini desak, oshirib aytgan bo‘lmaymiz. Chunki bugun ishlayman, o‘rganaman degan har bir insonga barcha sharoitlar bor.

Qonliko‘l tumanidagi “Arzimbetqum” OFYda yashovchi S.O‘tepbegonov va P.Uosenova dastlab tomorqada qulupnay yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi. O‘tgan yili kichkina tomorqadan birgina qulupnayning o‘zidan 5 million so‘mdan ortiq daromad ko‘rishdi. Tuman hokimining qo‘llab-quvvatlashi bilan ularga “Daryoboy qagsovin” fermer xo‘jaligidan yer ajratilib, oldindan tayyorlangan qulupnay ko‘chatlari o‘tqazildi.

Texnika tilini bilgan nuroniy

Bugungi tinch hayotimiz, erishgan yutuqlarimiz, yorug‘ kelajagimiz uchun fidokorona xizmat qilib kelayotgan nuroniy ota-onalarimizni har qancha e‘zozlasak arziydi. Chunki ular umri, bor kuch-g‘ayratini, bilim va iste‘dodini el-yurt farovonligiga bag‘ishlagan.

Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan qonliko‘llik Shukurjon opa Samambetova bu yil 75 yoshni qashilaydi. Qahramonimiz yoshligidan qishloq xo‘jaligi sohasida asosiy kuch, ya‘ni “dehqonning qo‘l qanoti” hisoblangan traktorni boshqarishga qiziqqan. Nafaqat qiziqdi, tanlagan



Ozodbek RAJABOV, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori

Natijada o‘sha yil noyabrda Samarqand shahri mezbonligida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Shuningdek, 2018-yil 21-sentabrda Toshkent shahrida “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanilmagan



imkoniyatlar” mavzusida yirik xalqaro anjuman o‘tkazildi.

Umuman olganda, 2017-2025-yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 50 dan ortiq uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbirlarda mintaqadagi transport bog‘lamlari, temir yo‘l liniyalari integratsiyasi bo‘yicha qator kelishuvlarga erishildi.

Eng muhimi, Markaziy Osiyo temir yo‘l halqasining sharqiy yarim doirasini tashkil qiluvchi Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston, Mozori Sharif — Kobul — Peshovar tarmoqlarining qurilishi boshlangani mintaqada barqaror transport-logistika zanjirining yaratilishiga zamin hozirladi. Xavfsiz, qisqa va qulay transport yo‘lagi rivojlanishida bu yo‘nalish g‘oyat muhim.

O‘z navbatida, Markaziy Osiyoning yangi temir yo‘l arxitekturasini shakllanishida Prezidentimizning shaxsiy tashabbuslari, sa‘y-harakatlari muhim o‘rin tutayotganini e‘tirof etmoq kerak.

Gap faqat temir yo‘l tarmog‘i qurilishidagina emas. Mamlakatimizning bir vaqtlardagidek ehtiyoqkor, himoya pozitsiyasidagi davlatdan o‘ziga ishongan mintaqaviy yetakchiga aylanishi nafaqat O‘zbekistonni, balki butun mintaqani geosiyosiy identitet va o‘z taqdirini o‘zi belgilash fenomeni sari yetaklamog‘da. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida tarixan shakllangan savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy bog‘liqlikning Prezidentimiz tomonidan qayta kashf qilinayotganini xalqaro jamoatchilik, dunyo afkor ommasi e‘tirof etayotgani sababi ham shunda.

Markaziy Osiyo endi raqobatlashuv va o‘zaro ishonchsizlik muhiti hukm suradigan mintaqada emas, balki mustahkam qardoshlik, umumiy tarix va taqdir, chegaralar mushtrakligi ramziga aylanib bormog‘da. Bu natijaga erishishda integrativ diplomatiyaning tashabbuskori bo‘lgan Shavkat Mirziyoyevning dadil va uzoqni ko‘zlagan pragmatik siyosati muhim omil bo‘ldi.

ISTAK VA INTILISH BIR PARCHA YERNI XAZINAGA AYLANTIRADI


mexanizatorlik kasbi bilan baxt, iqbol, martabaga erishgan. Texnikaga qiziqishi o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng texnikumning mexanizatsiya bo‘limiga yetaklab kelgan edi. O‘qidi, o‘rgandi, mehnat qildi. So‘ng oila qurdi. Umr yo‘ldoshi O‘roqboy Samambetov ham qishloq xo‘jaligi rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan insonlardan biri edi.

— Dalada kultivator, paxta terish mashinasi, xullas, qanday texnika bo‘lsa, barchasini boshqarganman. Shuningdek, ipak qurti boqib, pillachilikni rivojlantirishda ham hissamiz bor, — deydi Shukurjon ona Samambetova.

Yoshligidan dala ishlarida qo‘li qavargan ona bugun ham farzandlari, nabiralari mehnatga o‘rgatib, tomorqasida poliz mahsulotlari, turli mevali daraxtlar ekib parvarishlashga o‘rgatib keladi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Necha yillik mehnatlari samarasi bilan katta bog‘ yaratgan.

Tomorqa — farovonlik manbai

Qishloq joylarda tomorqa yerlari azaldan oila riziqi, baraka va mehnat simoli bo‘lib kelgan. Hozir esa tomorqadan unumli foydalanish orqali nafaqat oila ehtiyojini qondirish, balki barqaror daromad manbaini yaratish mumkinligi



aholi hayotida o‘z isbotini topmog‘da. Ayniqsa, issiqxona qurish orqali qishda ham yerdan samarali foydalanish oailalarning iqtisodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirayotir.

Amudaryo tumanining “Bobur” OFYda tomorqachilar safi kengayib bormog‘da. Bu borada “mahalla yetiligi”, xususan, hokim yordamchisi tomonidan aholiga amaliy yordam ko‘rsatilib, kredit olish, issiqxona qurish va agroteknik masalalarda maslahatlar berib borilayotgani soha rivojida muhim omil bo‘layotir.

Alisher Bobojonov ana shunday imkoniyatlardan foydalanib, samarali faoliyat yuritayotgan ilg‘or tomorqachilardan. U 2025-yilda 33 million so‘m kredit olib, 3 sotix maydonda zamonaviy issiqxona qurdi. Hozir tomorqachi sabzavot ko‘chatlari tayyorlash bilan shug‘ullanadi.

— Ko‘chatchilikning afzalligi shundaki, u nisbatan qisqa muddatda daromad keltiradi. Faqat doimiy mehnat talab qiladi. Uddalab olsangiz, sifatli ko‘chat har doim talabgiri, ayniqsa, bahor mavsumida dehqon va tomorqachilar uchun, — deydi u. — Lekin alohida e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan o‘ziga yarasha jihatlari bor, jumladan, urug‘ tanlash, tuproq aralashmasini to‘g‘ri tayyorlash, harorat va namlikni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Qish faslida esa issiqxonada barqaror haroratni saqlash orqali bozor uchun ko‘chatlar yetishtiriladi.

Ushbu ovuldagi yana bir ilg‘or tomorqachi Soatboy Otajonov bankdan kredit olib, jami 4 sotixli issiqxona qurdi. U ham, asosan, sabzavot

Markaziy Osiyoning yangi temir yo‘l arxitekturasini shakllanishida Prezidentimizning shaxsiy tashabbuslari, sa‘y-harakatlari muhim o‘rin tutayotganini e‘tirof etmoq kerak.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Bugungi dunyo iqtisodiyoti tobora murakkablashib, an‘anaviy rivojlanish modellari o‘z samarasini yo‘qotib borayotgan bir paytda har bir davlat oldida muhim savol turibdi: mavjud resurslar hisobiga qanday qilib barqaror o‘shishni ta‘minlash mumkin? Global bozorlardagi beqarorlik, logistika zanjirlarining uzilishi, importga qaramlikning xavfli oqibatlari bu savolning dolzarbligini oshirmog‘da.



Alijon ABDURAHMONOV, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MAHALLIY SANOAT KOOPERATSIYASI: Qashqadaryo taraqqiyoti yo‘lida dolzarb vazifalar



FARMONDAGI UZOQNI KO‘ZLAGAN JIHATLARDAN YANA BIRI — KADRLAR MASALASIGA E‘TIBOR. BUGUNGI SANOATNI FAQAT MABLAG‘ YOKI TEXNIKA BILAN RIVOJLANTIRIB BO‘LMAYDI. MALAKALI MUHANDIS, TEXNOLOG, SIFAT NAZORATCHISI VA BOSHQARUVCHI BO‘LMAVA, HAR QANDAY LOYIHA QOG‘OZDA QOLIB KETADI.

Ana shunday sharoitda Prezidentimizning 2026-yil 4-fevraldagi “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni nafaqat iqtisodiy, balki strategik tafakkur mahsuli sifatida e‘tibor qozondi. Chunki farmonda belgilangan vazifalar muammolarni oqibat darajasida emas, balki ildizidan hal etishga qaratilgan. U ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanib qolmay, iqtisodiyotda yaratilayotgan

qo‘shilgan qiymat, sanoat zanjirlari aniqligi va hududlarning real iqtisodiy faolligini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Uzoq yillar davomida ko‘plab hududlar, jumladan, Qashqadaryo ham xomashyo yetkazib beruvchi viloyatlardan biri edi. Don, go‘sh, sut, meva-sabzavot kabi mahsulotlar yetishtiriladi, ammo deyarli qayta ishlanmasdi. Natijada hududda yaratilishi mumkin bo‘lgan qo‘shilgan qiymat boshqa joylarda shakllandi. Bu holat iqtisodiy mantiq nuqtayi nazaridan ham, hududiy rivojlanish manfaatlarini

jihatidan ham to‘g‘ri emas edi. Prezidentimiz farmoni aynan shu nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan. Jumladan, sanoat kooperatsiyasiga oddiy hamkorlikdan tashqari bozor mexanizmlariga asoslangan manfaatli tizim sifatida qaralmog‘da. Ammo majburiy emas. Yirik korxonalar uchun zarur butlovchi qismlar, xomashyo va xizmatlarni imkon qadar ichki bozordan xarid qilish orqali kichik va o‘rta biznes ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ulanadi. Bu, bir jihatdan, yirik ishlab chiqaruvchilar xarajatini optimallashtirsa, ikkinchi jihatdan, hududiy tadbirkorlik subyektlariga barqaror buyurtmalar manbaini yaratadi. Aynan shu omil farmonning hayotiyligini yaqqol ko‘rsatadi.

Farmonda oziq-ovqat sanoatining drayver soha sifatida belgilanishi Qashqadaryo uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki viloyatning tabiiy iqlim sharoiti, xomashyo bazasi va mehnat resurslari bu tarmoqni chuqur rivojlantirish uchun yetarli. Ammo chuqur rivojlanish deganda faqat yangi sexlar ochish emas, balki texnologik yangilanish, sifat standartlarini joriy etish, saqlash, qadoqlash va logistika zanjirlarini to‘liq shakllantirish ham nazarda tutilmog‘da. Farmon bilan ana shu jarayonlar yagona tizimga bog‘lanmog‘da.

Davlat xaridlari tizimida joriy etilayotgan yangi yondashuvlar ham alohida e‘tiborga loyiq. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga berilayotgan narx preferensiyalari, xaridlarni lotlarga bo‘lish, ishonchlik reytinglari kabi mexanizmlar oddiy tadbirkor uchun davlatni real hamkor sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv, ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun muhim. Chunki barqaror bozorsiz ishlab chiqarishni kengaytirish haqida gap bo‘lishi qiyin. Farmonda esa aynan shu barqarorlikni ta‘minlash ko‘zda tutilgan.

Hujjatda moliyaviy va texnologik qo‘llab-quvvatlash masalalariga ham aniq va ochiq yondashilgan. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalr, bojxona preferensiyalari aniq muddat va mexanizmlar bilan belgilangan. Bu esa tadbirkor uchun eng muhim omil — ishonchini yaratadi. Ishonch bor joyda esa tashabbus, sarmoya va mas‘uliyat bo‘ladi.

Farmondagi uzoqni ko‘zlagan jihatlardan yana biri — kadrlar masalasiga e‘tibor. Bugungi sanoatni faqat mablag‘ yoki texnika bilan rivojlantirib bo‘lmaydi. Malakali muhandis, texnolog, sifat nazoratchisi va boshqaruvchi bo‘lmasa, har qanday loyiha qog‘ozda qolib ketadi. Shu sababli farmonda ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi alohida yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu, ayniqsa, hududiy oliy ta‘lim muassasalari zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Mazkur farmon rahbarlar uchun ham aniq xabar beradi: endi natija hududda yaratilgan real iqtisodiy qiymat bilan o‘lchanadi, hisobot bilan emas. Qaysi tarmog‘da qanday kooperatsiya yo‘lga qo‘yildi, qaysi mahsulot import o‘rnini bosdi, qaysi loyihalar ish o‘rni ochdi — mana shu savollar bosh mezonga aylanadi. Shu bilan birga, farmon rahbarlarga aniq tayanch ham beradi, ya‘ni tashabbus ko‘rsatgan, mas‘uliyat bilan ishlagan rahbar uchun barcha shart-sharoit yaratilmog‘da.

Prezidentimizning navbatdagi farmoni bugungi iqtisodiy vaziyatda kechiktirib bo‘lmaydigan, o‘z vaqtida va chuqur o‘ylangan qaror sifatida baholanishi lozim. Qashqadaryo viloyati uchun bu hujjat xomashyo yetkazib beruvchi hududdan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sanoat makoniga aylanish imkoniyatini beradi. Agar farmon mazzamuni joylarda to‘g‘ri tushunilib, izchil amalga oshirilsa, samarasi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarda, balki odamlarning kundalik hayotida ham seziladi. Eng muhimi, bu hujjat davlatimiz rahbarining mamlakatni uzoqni ko‘zlab, mas‘uliyat bilan boshqarayotganining yana bir yaqqol tasdiq‘idir.

ko‘chatlari va turli gullar yetishtirish bilan shug‘ullanadi.

— Gul yetishtirish nafaqat iqtisodiy, balki ma‘naviy ahamiyatga ham ega. Ularga doim ehtiyoj bor. Chunki turli bayramlar, tadbirlar yil bo‘yi muntazam davom etadi, — deydi S.Otajonov. — Issiqxonada gul yetishtirish uchun yorug‘lik, namlik va ozuqa muvozanatini saqlash zarur. Bu mashqatqatli ish, lekin yuqori daromad olsa bo‘ladigan yo‘nalish. Biz ushbu issiqxonamizni oilaviy biznesga aylantirganmiz.

Tomorqada gul yetishtirish yuqori daromadligi va kam joy talab qilishi bilan ajralib turadi. Bir necha sotix yerda yetishtirilgan noyob gul ko‘chatlari bir necha tonna kartoshka yoki piyozdan ko‘ra ko‘proq foyda keltirishi mumkin. Qolaversa, gulchilik mavsum tanlamaydigan soha. Bu esa yil bo‘yi, ayniqsa, bayramlar arafasida yaxshi foyda olish imkonini beradi.

Ovuldagi yana bir ilg‘or tomorqachi Oybek Davlatov 2024-yilda 100 million so‘m kredit olib, 6 sotixli issiqxona qurgan edi. Hozirgi kunda shu yerda bodring va pomidor yetishtirib, ichki bozorni ta‘minlab kelmog‘da.

Qishloq joylarda tomorqa aholining o‘zini o‘zi band qilishda muhim o‘rin tutadi. Issiqxona qurish orqali oila a‘zolari doimiy ish bilan ta‘minlanadi, asosiy, mehnat migratsiyasi kamayadi.

Ilg‘or tomorqachilar tajribasidan kelib chiqib, yerga mehr bilan yondashilsa, tomorqa haqiqiy daromad manbai ekanini anglash qiyin emas. Issiqxona qurish, ko‘chatchilik, gulchilik va sabzavotchilik yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali ko‘plab oilalar barqaror daromad manbaiga ega bo‘lmog‘da.

Minajatin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

